

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-sentyabrda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 22 837,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 4,4 %ga o'sdi.

2018 yil 3-chorak yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 7 944,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,2 %ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakillantirishda Toshkent viloyatining qo'shgan xissasi 9,3 %ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

| | Mlrd.so'm | | 2017 yilga yanvar-sentyabr nisbatan %da |
|---|--------------------------|--------------------------|---|
| | 2017 yil yanvar-sentyabr | 2018 yil yanvar-sentyabr | |
| I. YaHM | 16 693,9 | 22 837,1 | 104,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 15 438,6 | 21 227,6 | 104,3 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 1 255,3 | 1 609,5 | 105,4 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 15 438,6 | 21 227,6 | 104,3 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 3 838,1 | 4 852,5 | 102,5 |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 6 396,9 | 10 327,7 | 106,2 |
| sanoat | 5 912,3 | 9 591,3 | 105,0 |
| qurilish | 484,6 | 736,4 | 120,6 |
| Xizmatlar | 5 203,6 | 6 047,4 | 103,4 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 547,7 | 1 817,4 | 99,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 316,4 | 1 407,4 | 103,1 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 2 339,5 | 2 822,6 | 106,0 |

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,5 %, (YaHM tarkibidagi ulishi – 22,9 %), sanoat – 105,0 % (45,2 %), qurilish – 120,6 % (3,5 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 99,6 % (8,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 103,1 % (6,6 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 106,0 % (13,2 %)ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan




Iqtisodiy faoliyat turlari

qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 93,0 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa, 7,0 %ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 2,0 % punktga kamaydi va hisobot yilida 22,9 %ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 7,3 % punktga o'sdi va 48,7 %ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 28,4 %ni tashkil etdi va yanvar-sentyabr 2017 yil (33,7 %) bilan taqqoslanganda 5,3 % punktga kamaydi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda):**

2017 yil yanvar-sentyabr



2018 yil yanvar-sentyabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,6 %ni (2017 yil – 10,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,6 %ni (8,5 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 13,2 %ni (15,2 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda):**

2017 yil yanvar-sentyabr



2018 yil yanvar sentyabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Toshkent viloyati Statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul:
Sh. Bekpo'latov
Tel.: (0371) 230-86-57